



## **ETIKA : AXLOQ FALSAFASI**

***Yunusova Shaxzoda Boxodir qizi***

*Andijon davlat universiteti Matematika va mexanika fakulteti matematika  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada etika fanining mohiyati, asosiy tushunchalari, tarixiy taraqqiyoti hamda inson va jamiyat hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, turli diniy va falsafiy maktablarda axloq haqidagi qarashlar ko'rib chiqiladi. XXI asrda global etosfera, ya'ni umumjahon axloqiy muhiti zaruriyati haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется суть науки этики, её основные понятия, историческое развитие, а также роль в жизни человека и общества. Также рассматриваются взгляды на мораль в различных религиозных и философских школах. В XXI веке обсуждается необходимость глобальной этосферы — общемировой нравственной среды.

**Abstract:** This article analyzes the essence of ethics, its key concepts, historical development, and its role in the life of individuals and society. It also examines moral views in various religious and philosophical schools. In the 21st century, the article discusses the necessity of a global ethosphere — a universal moral environment.

**Kalit so'zlar:** Etika, axloq, axloqiy me'yorlar, jamiyat, madaniyat, tarixiy taraqqiyot, global etosfera.

**Ключевые слова:** Этика, мораль, нравственные нормы, общество, культура, историческое развитие, глобальная этосфера.

**Keywords:** Ethics, morality, moral norms, society, culture, historical development, global ethosphere.



## Kirish

Insoniyat qadimdan beri yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va noto‘g‘rilik haqida o‘ylab kelgan. Bu izlanishlar natijasida etika, ya’ni axloq nazariyasi shakllangan. Etika inson xulq-atvorining me’yorlari, qadriyatlari va ma’naviy tamoyillarini o‘rganadi. U nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Etika yordamida odamlar o‘zaro munosabatlardaadolat, halollik, mehr-oqibat kabi tushunchalarning ahamiyatini anglab, axloqiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Bugungi globallashuv davrida esa, etikaning dolzarbliyi yanada oshmoqda, chunki madaniyatlar va qadriyatlar to‘qnashuvida axloqiy me’yorlar muhim yo‘l ko‘rsatuvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqolada etikani fan sifatida, uning asosiy tushunchalari va yo‘nalishlari, shuningdek, inson va jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

### Etika va axloq tushunchasi

Etika – bu axloq nazariyasi bo‘lib, kishilarning axloqiy hayotini o‘rganadigan, axloqiy hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradigan eng qadimgi insonshunoslik fanlaridan biridir. Etika so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “odat”, “odob” ma’nosini bildiradi. Uni birinchi marta Aristotel axloqning sinonimi sifatida ishlatgan. Axloq — arabcha “xulq” so‘zining ko‘plikdagi shaklidir. Axloq ibtidoiy jamoa davrida paydo bo‘lgan, chunki kishilik jamiyati paydo bo‘lishi bilan kishilar o‘rtasida axloqiy munosabatlar ham paydo bo‘la boshlagan. Kishilardagi axloqiy tushunchalar birdaniga emas, balki asta-sekin davr o‘tishi bilan takomillashib borgan. Axloq har bir tarixiy davrda o‘ziga xos xususiyat kasb etgan. Davrning xususiyati kishilar axloqida aks etgan. Jamiyatning rivojlanib borishiga, axloq ham mos ravishda taraqqiy etib borgan. Axloq kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Axloq normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe'l-atrofiga qo‘yiladigan talablardir. Bu normalar shaxsning jamiyatga — Vatan, davlat, millat, guruhga munosabatini, shuningdek, shaxsning turmushdagi, ayrim

kishilarga, kasb-koriga, mutaxassisligiga, hatto o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardagi xatti-harakatni ham o‘z ichiga oladi.

Turli dinlarda axloq va odob haqidagi ta'limot

Axloq falsafasi Sharq falsafasining ko‘p yo'nalishlarida muhim o'rinni tutadi. Masalan, zardushtiylik o‘zida shunday axloqiy talablarni mujassamlashtirganki, unga binoan kishilar bir-birlari bilan tinchlik va osoyishitalikda ahllik bilan yashashlari, o‘z yaqinlariga xayrixohlik ko'rsatishlari, zaruriyat va xavfli vaziyatlarda bir-birlariga yordam berishlari, yomonlik, shafqatsizlik, mag'rurlik, zo'ravonlik, o'zboshimchalik, hasad va tuhmatga qarshi kurash olib borishlari, g'azab va hokazolarga berilmasliklari lozim bo'lgan.

Axloq masalalariga xitoy va hind falsafasida ham katta e'tibor qaratilgan. Masalan, konfutsiychilikda axloqiy qoidalar, me'yorlar va boshqa ishni tartibga solib turishga asosiy e'tibor qaratilgan. Qat'iy axloqiy talab manbalari quyidagi so'zlarda o‘z ifodasini topgan: "Har bir kishini o'zingni hurmat qilgandek hurmat qil, o'zingga nimani ravo ko'rishni xohlasang, boshqalarga ham shuni ravo ko'rgi, ular ham bizga shunday munosabatda bo'l sinlar, bundan yuksakroq hech narsa yo'q" (Konfutsiy).

Vedalar falsafasi nuqtayi nazaricha, eng muhim narsa bu ezgu ishlar, to'g'ri xulq-atvor, kamtarona hayot tarzidir. Faqat shundagina yuksak axloqli kishi o'zining karmasini o'zgartirishi mumkin. Buddaviylik insonning bosh maqsadini azob uqubatdan qutilish deb e'lon qildi, bunga esa, to'g'ri xatti-harakatni, to'g'ri gapirishni, to'g'ri hayot kechirishni va hokazolarni o‘z ichiga olgan "to'g'ri yo'l" dan og'ishmay borilsagina erishiladi. Ana shu hind axloqiy falsafiy an'anasi bilish orqaligina buyuk mutafakkir M.Gandining quyidagi so'zlarini tushunish mumkin: "Qachon harakat qilishni va qachon xatti-harakatlardan tiyilib turishni bilmoq lozim. Bunday sharoitlarda harakat va faoliyatsizlik bir-biriga qardosh bo'lib, bir biriga hech ham qarama-qarshi turmaydi". Suqrot, Aflatun, Arastu, Epikur, Mark Avreliy, Seneka va boshqa qadimgi dunyo mutafakkirlari axloq falsafasi rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Suqrotning



fikricha, axloq asosini u yoki bu axloqiy ko'rsatmalarga tashqi tomondan rioya etish emas, balki ularning zarurligini tushunish tashkil etadi. Chuqur bilimlarga ega bo'lish va o'z-o'zini bilish insonga xush xulq bo'lish imkoniyatini beradi. Ana shu yerdan Suqrot shiorining manbasi kelib chiqadi: "O'z-o'zingni bil".

### Tarixiy shaxslarning fikrlari

Jahon axloq falsafasidagi haqiqiy burilish Yevropada Uyg'onish davrida yuz berdi. "Uyg'onish davri falsafasi axloqiy me'yorlarning paydo bo'lishi masalasini kun tartibiga qo'ydi. Shuning uchun birinchi o'ringa ilgarigidek, ezgulik nima degan masala emas, balki boshqasi, axloqiylikning o'zi nima va u qanday maqsadlarga xizmat qiladi, degan muammo qo'yiladi". Ko'pchilik mutafakkirlar bu masalalarga o'z javoblarini berishga harakat qildilar. P. Beyl axloq asosida insonning tabiiy yaxshilikka intilishi yotishini ta'kidlagan.

Axloq falsafasi tarixida muhim o'rinni musulmon Sharq mutafakkirlarining g'oyalari ham tashkil qiladi. Forobiy uchun axloq bu insonning jamiyat a'zosi sifatidagi axloqiy xatti-harakatlari to'g'risidagi bilimdir. Axloq, odoblik jamiyatni takomillashtirish va baxt-saodatga erishish, ravnaq va umumiy ezgulikka erishish garovidir. Beruniy adolatni bosh ezgulik hisoblab, qayd etgan ediki,— "Tenglik joriy etilgan joyda ochko'z hissiyotlar va g'am-alam barham topadi". Sharqning axloqiy falsafiy ta'limotida muhim o'rinni Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u-bilig" asari egallaydi. Asosiy diqqat-e'tiborni Yusuf inson ma'naviy kamolotiga qaratadi. U qayd etgan edi: "Kimning xatti-harakati yaxshi va fe'l-u xuyi to'g'ri bo'lsa, u o'z maqsadiga erishadi va unga baxt saodat kulib boqadi".

XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.

XXI asrda global etosfera, sayyoramizda etosfera — axloqiy muhitni yaratish dolzarb masalaga aylandi. Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda inson o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-

texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani — texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz — yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bugun video telefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko’rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak, necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan. Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri rus olimi V.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: “Sayyoramiz yuzi — biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, — deb yozadi u. — Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o‘zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz”. Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologiktozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma’noda XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig‘lantirishni taqozo etadi. Ya’ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma’nodagi axloqiy muammolar sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad .L .Dorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to‘poslik aybdordir», — degan so‘zlari shu nuqtayi nazardan diqqatga sazovordir. Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o‘zini va o‘z



sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa — XXI asrdan boshlab etosferadavriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

### **Xulosa**

Axloq falsafasi-insonning ongli faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy ma'naviy dunyosini tushunishda muhim o'rinni tutadi. Axloq falsafasi inson hayotiga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib hizmat qiladi. U nafaqat nazariy bilim beradi, balki kundalik hayotimizda to'g'ri yo'l tanlash, boshqalar bilan munosabatda bo'lishga yordam beradi. Ammo hozirgi globallashuv davrida turli hil axloqiy muommolar paydo bo'lmoqda. Ba'zi insonlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli hil ahloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni ko'rib, asta-sekin ahloqiylik chegarasidan chiqib ketmoqda. Masalan, ba'zi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mashhurlikka erishish istagida, odobga to'g'ri kelmaydigan raqlar, kiyinish uslubi yoki so'zlashuvlar bilan chiqishmoqda. Bu esa yosh avlodda noto'g'ri ahloqiy qadriyatlar shaklanishiga olib keladi. Shunday ekan, ahloqiy falsafani chuqur o'rganish va uni amaliyotda qo'llash hozirgi zamon uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

- 1 . Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma—Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
2. Falsafa darslik—M.A.Axmedova, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006-yil
3. Axloqshunoslik—D.Po'latova
4. Falsafa II—R.Maxmudov va boshq.
5. Falsafa darslik—MatbuaAxmedova